

**“KELISHILDI”**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Davlat statistika qo‘mitasi  
Kasaba uyushmasi qo‘mitasi  
Raisi**

 **J. Mirsaidov**

2022- yil “26” aprel

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘zbekiston Respublikasida  
2024- yilda qishloq xo‘jaligi sohasida  
ro‘yxatdan o‘tkazishga ko‘maklashish  
bo‘yicha respublika komissiyasi  
raisining o‘rinbosari,  
Davlat statistika qo‘mitasi Raisi**

 **B. Begalov**

2022- yil “26” aprel

**Ro‘yxatdan o‘tkazish ishlariga vaqtinchalik jalb etiladigan uy-joy  
va xo‘jalik yurituvchi subyektlar ro‘yxatini xatlovdan o‘tkazuvchi  
(registrator)lar uchun mehnat muhofazasi bo‘yicha  
Yo‘riqnoma**

**1-bob. Mehnat muhofazasi bo‘yicha umumiy talablar**

1. Registrator O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi, davlat tilini bilishi, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus (kasb-hunar ta‘limi) yoki oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi, yoshi 16 yoshdan yuqori bo‘lishi, aqli raso, aholi bilan muloqotga kirisha oladigan (gapirish va eshitish qobiliyatiga ega), belgilangan tartibda mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘quv va yo‘riqnomadan o‘tgan bo‘lishi talab etiladi.

**2. Registratorning majburiyatlari:**

faqat o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish va uni bajarishning xavfsiz yo‘llaridan foydalanish;

yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilish, yong‘in vaqtida harakatlanish qoidalarini bilish;

berilgan vazifalarni havfsiz amalga oshirilishiga to‘sqinlik qiluvchi ish vaqtida yuzaga keladigan vaziyatlar haqida tuman sinov tariqasida ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda - Bo‘lim)ga ma‘lumot berish;

baxtsiz hodisalarda jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish tartibini bilish;  
shaxsiy gigiyena qoidalarini bilish va unga amal qilish.

3. Xatlovdan o'tkazish jarayonida registratorga quyidagi omillar xavf tug'dirishi mumkin:

noqulay ob-havo (meteorologik) sharoitlari;  
tabiiy yorug'likning yo'qligi yoki yetishmasligi;  
harakatlanuvchi transport vositalari;  
jismoniy va ruhiy zo'riqishlar.

4. Mehnat muhofazasi bo'yicha ushbu Yo'uriqnoma talablarini bajarmagan ro'yxatga oluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

### **2-bob. Ish boshlashdan oldingi mehnat muhofazasi talablari**

5. Ish boshlashdan oldin registrator quyidagi talablarga amal qilishga majbur: uy-joy va xo'jalik yurituvchi subyektlar ro'yxatini xatlovdan o'tkazish uchastkasi (keyingi o'rinlarda-uchastka) bo'yicha harakatlanish yo'nalishini rejalashtirish; qulay poyafzal kiyish.

### **3-bob. Ish bajarishdagi mehnat muhofazasi talablari**

6. Ish bajarishda registrator quyidagilarga majbur:

Inson hayotiga xavf soluvchi ifloslangan yerlar, chuqurlar, ariqlar, zovurlar, yer osti kommunal xo'jaligi quduqlari, suv omborlari va boshqa to'siqlardan xoli xavfsiz bo'lgan piyodalar yo'laklari bo'ylab yo'nalish tanlash;

uchastka bo'ylab harakatlanganda masofani qisqartirish maqsadida umumfoydalanilmaydigan yerlar, chiqindixonalarni kesib o'tmaslik;

turar joy binolariga kirishda yashovchilardan keyin kirish (binoda qarovsiz, qopog'on itlar, shaxsiy turar joylarda ochiq yerto'lalar, omborxonalar va boshqalar bo'lishi mumkin);

ijtimoiy havfli shaxslar yashovchi turar-joy binolariga faqat ichki ishlar xodimi bilan birga tashrif buyurish;

agar turar-joyda yashovchilardan biri spirtli ichimliklar, narkotik yoki boshqa zaharli moddalar ta'sirida tajovuzkorona hatti-harakat, janjal boshlaganda, turar-joy binosini zudlik bilan tark etish;

yo'l harakati qoidalariga rioya qilgan holda piyodalar uchun mo'ljallangan yoki velosiped yo'lakhasidan yurish, ular bo'lmaganda yo'lning chap tomonidan yurish (yo'lning qatnov qismi chetidan transportlarning harakatlanishiga qarama-qarshi yo'nalishda);

ko'cha, avtomobil yoki temir yo'llarni kesib o'tishda tartibga soluvchi yoki svetofor signali yordamida tartibga solinadigan piyodalar o'tish joyi yoki yer osti, yer usti piyodalar o'tish yo'llaridan foydalanish, aksincha ular mavjud bo'lmaganda chorrahaning piyodalar o'tish yo'li yoki yo'lning chet qismi bo'ylab o'tish, yoxud yo'lning ikki tomoni ham yaxshi ko'rinadigan qismidan o'tish;

ko'zga ko'rinadigan joyda yer osti, yer usti piyodalar o'tish yo'li va chorrahalar mavjud bo'lmaganda yo'lning ikki tomoni ham aniq ko'rinadigan qism bo'ylab qisqa trayektoriya bo'ylab kesib o'tish. Bunda ro'yxatdan o'tkazuvchi yo'lning qatnov qismiga chiqish xavfsiz ekanligiga ishonch hosil qilishi va o'z harakati bilan transport vositalarining harakatiga to'sqinlik qilmasligi kerak;

yo'lning qatnov qismida, shuningdek qarama-qarshi va ro'paradan keluvchi transport vositalarini ajratuvchi gorizontaal yo'l belgisi chizig'ida ushlanib qolish va to'xtash ta'qiqlanadi;

umumiy foydalanishdagi transport vositalarini faqat belgilangan bekatlarda kutish, ular bo'lmaganda yo'lning piyodalar uchun mo'ljallangan qismida (yo'l chetida) kutish;

yashil yoki qizil chiroq mayoqchasi yoqilgan transport vositasining yaqinlashib kelayotganini ko'rganda yo'lni kesib o'tish ta'qiqlanadi, yo'lning qatnov qismida bo'lgan ro'yxatdan o'tkazuvchi ehtiyotkorlik choralari ko'rgan holda yo'lning qatnov qismidan uzoqlashishi lozim.

7. Registratorga quyidagilarga ruxsat berilmaydi:

yorqin ranglardagi, o'ziga jalb qiluvchi qimmatbaho kiyimlar kiyish va zargarlik buyumlarini taqish, o'zi bilan ko'p miqdorda pul olib yurish;

duch kelgan transportdan foydalanish;

poyezd yo'llarida yurish, ularni belgilanmagan joylardan kesib o'tish, turgan vagonlar ostidan va yaqinlashib kelayotgan harakatdagi vagonlar oldidan kesib o'tish;

uzilgan va yalang'och elektr simlariga tegish, ular ustida turish;

daydi hayvonlarga yaqinlashish;

hayvonlarga yaqinlashish, ularga qo'l tekkizish, yegulik berish yoki boshqa harakatlarni sodir etish.

xonadonda bo'lganda xonadon egasining dasturxonga taklifini qabul qilish;

xatlovdan o'tkazish ishlarini bajarish vaqtida spirtli ichimliklar, psixotrop, narkotik, unga tenglashtirilgan yoki zaharli moddalar iste'mol qilish, shuningdek, ish bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi kasallikka chalingan holatda ish bajarish;

respondentlar bilan bahslashish va nizolashish, shaxsiy hujumlar yoki haqoratlarga javob berish.

#### **4- bob. Ishni yakunlashdagi mehnat muhofazasi talablari**

8. Uchastkadagi ishni yakunlashda registrator quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

Bo'limga ish vaqtida aniqlangan mehnat havfsizligiga ta'sir etuvchi kamchiliklar to'g'risida xabar berish;

Bo'lim ko'rsatmasiga ko'ra to'ldirilgan xatlovdan o'tkazish hujjatlarini topshirish.

### **5-bob. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik talablari**

9. Favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda (yong'in, yo'l-transporti hodisasi, baxtsiz hodisa) registrator quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

jabrlanganlarga birinchi yordam (tibbiy) ko'rsatish choralarini ko'rish, hodisa joyiga meditsina xodimlarini chaqirish yoki jabrlanganni sog'liqni saqlash tashkilotlariga yetkazish; zarurat tug'ilganda xatlovdan o'tkazish hujjatlari, moddiy qiymatliklarni saqlash choralarini ko'rish.

10. Uchastkada sodir bo'lgan barcha hodisalar haqida Bo'limga xabar berish.